

## LEARNING STYLES VA LEARNING PREFERENCES: TA'LIMDA SHAXSIY YONDASHUVNING AHAMIYATI

*Sobirova Malika Maxmudjon qizi*

*Samarqand Davlat Chet tillari instituti talabasi*

[makhmudjanovna62@gmail.com](mailto:makhmudjanovna62@gmail.com)

*Ilmiy rahbar: Zubaydova Nilufar Nimatullayevna*

**Annotatsiya:** Quyidagi maqolada o'qish uslublari ya'ni (learning styles) hamda o'qishga bo'lgan xohishlar (learning preferences) mavzusi kengroq ravishda yoritib beriladi. O'quvchilarning ta'lim olish jarayonida qanday uslublarni afzal ko'rishi ya'ni, qay uslubda bilim olsalar ushbu bilim ularning xotirasida tez va uzoq muddat saqlanishi va bu xohishlarning shaxsiy yondashuv orqali ta'lim jarayoniga qanday ta'sir qilishi haqida ma'lumot beriladi. Shu bilan birlashtirishning afzalliklari haqida ham qisqacha to'xtab o'tilgan. Ushbu maqola o'qituvchilar va o'quvchilarga ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beradigan ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

**Kalit so'zlar:** O'qishga bo'lgan xohishlar, o'qish uslublari, ta'limning samaradorligi, shaxsiy yondashuv, motivatsiya, shaxsiylashtirilgan ta'lim, VARK modeli.

### Kirish

Har bir shaxsning o'qishga bo'lgan yondashuvi va uslubi har xil bo'lib, bu ta'lim jarayonini samarali tashkil qilishda muhim rol o'ynaydi. Ba'zi insonlar vizual ma'lumotlarni yaxshi qabul qilsa, boshqalari esa ovozli materiallarga tayanadi yoki amaliyot orqali o'rganish ular uchun qulay yo'l hisoblanadi. Ta'lim olish jarayonini individual xususiyatlarga moslashtirish nafaqat bilim olishni osonlashtiradi, balki o'quvchining motivatsiyasi va kelgusida biror bir natijaga erishish muvaffaqiyatini ham oshiradi.

### O'qish uslublari (Learning Styles)

Ta'lif olish jarayonida VARK modeli eng ko'p qo'llaniladigan tizimlardan biri hisoblanib, o'qish uslublarini to'rtta asosiy guruhga ajratadi va ular quyidagilar:

#### 1. Vizual (Visual)

Vizual tarzda o'rganuvchilar turli xil tasvirlar, diagrammalar va grafiklar orqali ma'lumotni tushunishga harakat qiladilar. Ular ranglar va ko'rgazmali materiallardan yaxshi foydalanishadi. Misol qilib, geografik xaritalar yoki konsept xaritalari, diagrammalar bu turdag'i o'quvchilar uchun juda samarali hisoblanadi.

#### 2. Audial (Auditory)

Audial uslubni afzal ko'ruchilar ovoz yozuvlari, ma'ruzalar va guruh muhokamalaridan ko'proq foyda oladi. Ular uchun eshitish qobiliyatini ishga soladigan materiallar muhimdir va ular o'zlarining eshitish qobiliyatini ko'proq ishga soladilar. Masalan, podkastlar yoki ta'limiy audio dasturlar.

#### 3. Kinetik (Kinesthetic)

Amaliy bajariladigan ishlar orqali o'rganishni yoqtiradigan o'quvchilar. Ular odatda laboratoriya tajribalari, qo'l bilan bajariladigan mashg'ulotlar, yoki sahna qo'yish kabi faol usullardan keng ko'lamda foydalanishadi. Ular biror narsani bajarishdan oldin o'zlari sinab ko'rishadi va keyingi safarida bu ishni juda oson tarzda uddalashadi.

#### 4. O'qish/Yozish (Reading/Writing)

Turli xil matnlarni o'qish va yozishni yaxshi ko'ruchilar eslatmalar tayyorlash va ko'plab turdag'i maqolalarni o'qish orqali o'rganadi. Bunday turdag'i o'quvchilar uchun darsliklar va yozma topshiriqlar ularning o'rganisqlari uchun asosiy manba hisoblanadi.

#### **O'qishga bo'lgan xohishlar (Learning Preferences)**

O'quvchilarning o'rganish jarayonida afzal ko'radigan sharoit va metodlari hisoblanadi. Bu metodlat quyidagilar orqali namoyon bo'ladi:

Shaxsiy uslublar: Kimdir mustaqil tarzda, individual o'rganishni istasa, boshqalar guruh bo'lib ishlashni afzal ko'radi.

Atrof-muhit omillari: Ba'zi o'quvchilar shovqinsiz muhitda jimlik bilan o'rganishsa, qolganlari, fon musiqasi bilan o'rganishni yoqtirishi mumkin.

Texnologiyalardan foydalanish: Ba'zi o'quvchilar onlayn platformalar va raqamli resurslarni yaxshi ko'risha, ba'zilari esa oquv qo'llanmalari, kitoblar orqali o'qishni yoqtirishadi.

### O'qish uslublarini aniqlash usullari

O'quvchilar o'zlarining shaxsiy uslublarini aniqlash uchun quyidagi bosqichlarni amalga oshirishlari mumkin:

1. O'z-o'zini kuzatish: Ma'lumotni qaysi shaklda tezroq tushunayotganingizni aniqlang va o'sha metodni qo'llang.

2. Sinovlar o'tkazish: VARK modeli asosidagi testlar ishlangva bu o'zingizga mos uslubni aniqlashda yordam beradi.

3. Eksperiment qilish: Turli xil metodlarni sinab ko'ring va qaysi biri eng samarali ekanini bilib oling.

Shaxsiy ta'limning afzalliklari : O'quvchilarning shaxsiy ehtiyojlari va xohishlariga mos tarzda ta'limni tashkil qilishning qulayliklari:

Motivatsiyani oshiradi: O'quvchi o'ziga qulay uslubda o'rgansa bilim olish jarayonidan zavqlanadi va samaradorlik ham ortadi.

O'zlashtirish samaradorligini oshiradi: Shaxsiy yondashuv tufayli o'quvchilar materialni tezroq va chuqurroq o'zlashtiradi va xotirada ham tez olib qoladi.

Stressni kamaytiradi: O'zlariga mos tushgan usullar orqali o'rganish stressni kamaytiradi va o'quvchilarni yanada ishonchli qiladi.

### Xulosa

Xulosa qilib aytganda, o'qish uslublari va o'qishga bo'lgan xohishlar ta'lim jarayonida katta rol o'ynaydi. Har bir insonning bilim olishdagi individual xususiyatlarini hisobga olish nafaqat o'qituvchilar uchun, balki o'quvchilar uchun ham foydalidir. Ta'limni shaxsiylashtirish orqali nafaqat o'quv jarayonining samaradorligi oshadi, balki inson o'zining qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Nafaqat o'qituvchilar, balki ota-onalar ham ushbu uslublarni bilib, ularni ta'lim jarayonida qo'llasa, natijalar sezilarli darajada yaxshilanadi. Shuning uchun har bir o'quvchi o'z uslubini aniqlashi va unga mos metodlarni qo'llashi lozim.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Fleming, N., & Mills, C. (1992). Not Another Inventory, Rather a Catalyst for Reflection. *To Improve the Academy*, 11, 137-155.
2. Kolb, D. A. (1984). Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall.
3. Honey, P., & Mumford, A. (1986). The Manual of Learning Styles. London: Peter Honey.
4. Biggs, J., & Tang, C. (2011). Teaching for Quality Learning at University. McGraw-Hill Education.
5. Marzano, R. J. (1992). A Different Kind of Classroom: Teaching with Dimensions of Learning. Alexandria, VA: Association for Supervision and Curriculum Development (ASCD).
6. Gardner, H. (1983). Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. New York: Basic Books.
7. O'zbekistonda Ta'limni Rivojlantirish Markazi (2023). O'zbekiston Respublikasi ta'lim standartlari va o'quv uslubiyoti bo'yicha yangiliklar.